

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova	
Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish	7
G.G'.G'affarova	
Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil.....	13
K.D.Yarashev	
Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi.....	17
A.A.Rayimov	
O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati	21
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	25
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	30
S.S.Ulkanov	
Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari	35
T.M.Burxanov	
O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili	40
U.R.Radjapov	
Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari.....	44
Sh.A.Mamajonov	
Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir	48
F.K.Yusupova	
Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni	53
O.O.Qodirov	
O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati	58
M.M.Mamatkodiroy	
Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish	63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	70

FALSAFA

I.A.Suvanov	
Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar	76
A.N.Meliboyev	
Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari	83
G'.Z.Abduraxmonov	
G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	88
S.S.Jabborova	
O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli	93

EKOLOGIK TARBIYALANGANLIK – JAMIYAT VA UNING TARAQQIYOTI UCHUN MUHIM OMILDIR**ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЩЕСТВА И ЕГО РАЗВИТИЯ****ECOLOGICAL EDUCATION IS AN IMPORTANT FACTOR FOR SOCIETY AND ITS DEVELOPMENT****Mamajonov Shuxratjon Asqarovich¹****¹Mamajonov Shuxratjon Asqarovich**

– Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada Oliy pedagogik ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish”, “Ekologiya”, “Xalq pedagogikasi” fanlarining o‘qitilishi tahlili, bu boradagi muammolar, mazkur yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan tajriba dasturi, unga muvofiq talabalarda ekologik tarbiyalanganlikni rivojlantirish, baholash mezonlari, o‘tkazilgan tajriba sinov ishlari va bu boradagi xulosalar batafsil yoritilgan.

Аннотация

В статье анализируется преподавание предметов «Экология и охрана природы», «Экология», «Народная педагогика», преподаваемых в курсах высшего педагогического образования, проблемы в этой связи, технологии развития механизмов экологического воспитания у студентов, обучающихся на этих курсах. Подробно освещены экспериментальная программа, разработанная в части совершенствования, развития экологического воспитания учащихся по ней, критерии оценки, проведенные экспериментальные испытания и выводы по этому поводу.

Abstract

The article analyzes the teaching of the subjects "Ecology and nature protection", "Ecology", "People's pedagogy" taught in higher pedagogical education courses, problems in this regard, technologies for the development of mechanisms of ecological education in students studying in these courses. The experimental program developed for improvement, the development of environmental education of students according to it, the assessment criteria, the conducted experimental tests and the conclusions in this regard are covered in detail.

Kalit sozlar: Ekologiktarbiya, ekologikta‘lim, ekologikmadaniyat, ekologikkompetensiya, ekologiktarbiyalanganlik, ekologik tarbiya mexanizmlari, integratsiya, ekologik tarbiya texnologiyalari.

Ключевые слова: Экологическое образование, экологическое образование, экологическая культура, экологическая компетентность, экологическое образование, механизмы экологического образования, интеграция, технологии экологического образования.

Key words: Ecological education, ecological education, ecological culture, ecological competence, ecological education, mechanisms of ecological education, integration, technologies of ecological education.

KIRISH

Mamlakatimizda atrof-muhitning musaffoligini saqlash, aholi salomatligi va genofondini muhofaza qilish, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlarning oldini olishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Milliy ekologik qonunchilikni takomillashtirish borasida yangi Farmon va qarorlar, 2030–yilgacha “Atrof muhitni muhofaza qilish”, “Ekologik ta‘limni rivojlantirish” konsepsiyalari qabul qilindi [1-2].

Ekologik ta‘lim-tarbiya jarayonida talabalarining ekologik tafakkurini rivojlantirish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon mazmunini optimallashtirish, didaktik ta‘minotini takomillashtirish taqozo etilmoqda.

Atrof-muhit musaffoligiga erishish va ekologik muammolarning oldini olishda aholining, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda ekologik tarbiyaning muhim vazifalaridan biri – talabalarda ekologik tarbiyalanganlik, ekologik kompetentlik, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish muhim bo‘lib hisoblanadi.

OTMLarining pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha tugallagan bakalavrlar mutaxassisliklari bo‘yicha kelgusidagi ish faoliyatini o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida olib borishadi. Shu sababli bo‘lajak mutaxassislardan ekologik bilim, ko‘nikma,

PEDAGOGIKA

malaka va kompetentsiyalarni egallash, sog'lom turmush tarzi, sanogen tafakkur haqidagi ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda oliy pedagogik ta'lim yo'nalishlarida "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish", "Ekologiya", "Xalq pedagogikasi" fanlarining o'qitilishi tahlil qilindi. Jumladan, oliy pedagogik ta'lim yo'nalishlarida "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" fanini o'qitilishi tahlil qilinganda, ushbu fanni ekologik ta'lim tarbiya berish imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanilmayotganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlar o'rganib chiqildi va tahlil natijalariga ko'ra quyidagilar:

- mashg'ulotlarda ko'p hollarda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanish, amaliyot darslarini olib borishda moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, nazariyaning amaliyot bilan bog'lanmaganligi, hamkor tashkilotlar imkoniyatlaridan foydalanilmayotganligi;

- fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llagan holda zamonaviy yondashuvlarga, xorijiy tajribaga e'tibor qaratmaslik, fan dasturida berilgan soat hajmiga nisbatan mavzularni haddan ziyod ko'pligi;

- fan o'qituvchilarining ilmiy salohiyati va pedagogik kompetentligi, sof ekologik ixtisoslik shifri bo'yicha ilmiy salohiyatli kadrlarning yetishmasligi;

- talabalarda ekologik tarbiyani rivojlantirishga yuzaki yondashuv. Auditoriyadan tashqarida o'tkaziladigan tadbirlar faqat sanalar bilan bog'liq hollarda mas'ul idora yoki ekologik partiyaning so'rovlari asosida tashkillanishi;

- ekologik tarbiyani rivojlantirishda ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga mas'ul idoralar, ommaviy axborot vositalari, mahalla tizimining turli yo'nalishlarida faoliyat olib borishi, bu borada o'zaro muvofiqlashtiruvchi yagona tizimning yaratilmaganligi;

- uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ekologik tarbiyani amalga oshirish bo'yicha maxsus kurslar dasturi va uni mazmuni ishlab chiqilmaganligi, o'quv jarayoniga to'liq yo'naltirilmaganligi;

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, OTMlarida o'qitilayotgan o'quv kurslari va o'quv modullari mavzulariga ekologik muammolar va ularning yechimlari, atrof-muhit muhofazasini ta'minlashda ongli munosabat, insonning hayoti mobaynida ekologik xavfsiz yashashini ta'minlash masalalarini yoritib beruvchi ma'lumotlarni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish hamda takomillashtirish masalasi kompleks xarakterga ega ekanligini ta'kidlagan holda, sohada innovatsion yondashuv, ilmiy izlanishlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish e'tirof etadigan darajada emasligi ayni haqiqatdir.

Fikrimizcha, oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi determinantlar quyidagi maqsad va vazifalarda o'z aksini topadi: o'quv jarayoniga zamonaviy ekologik yondashuvlarni, talabalarda ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik tarbiyani rivojlantirishni innovatsion usullarini joriy etish; ekologik masalalarga ongli munosabat bildirish; ta'sirchan va samarali yangi ekologik targ'ibot vositalarini ommalashtirish; har bir o'quv muassasasida ekologik xavfsiz o'quv sharoitlarini yaratish va boshqalar.


Biz qo'yilgan tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish borasida tajriba dasturini ishlab chiqdik. Tajriba dasturi uch qismdan (tashkiliy ishlar, auditoriya mashg'ulotlari (mustaqil ta'lim) va auditoriyadan tashqari) iborat bo'ldi. Auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda "Ekologiya", "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish", "Xalq pedagogikasi" fanlarini ekologiya va atrof muhit muhofazasi, etnoekologiya masalalarini qamrab olgan mavzularni integratsiya qilgan holda innovatsion yondashuv asosida o'qitish va auditoridan tashqari hollarda talabalarni taklif va tashabbuslari asosida hamkor tashkilotlar bilan tadbirlarni yuqori saviyada va samaradorlikka erishishni ta'minlash borasidagi amaliy ishlarga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotlarimiz mobaynida (2019-2022y.) biz yuqoridagi o'quv kurslarining fanlararo o'rni, bog'lanishini tahlil qilish orqali integrativ o'qitilishiga yo'naltirilgan ekologik tarbiya tizimida tahsil

oluvchilarning ekologik ongini shakllantirish va dunyoqarashini rivojlantiradigan, moslashuvchan, ekologik madaniyatda namoyon bo'luvchi belgilarda ifodalanadigan xususiyatlari aniqlandi.

Talabalar o'rtasida ekologik tarbiyani amalga oshirish usuli bilim egallash, axborotlarni o'zaro ayirboshlash, tabiiy holatlarni bashorat qilish, ma'rifat tarqatish hamda taqdim etish, to'g'ridan-to'g'ri ekologik ongini rivojlantirish bilan bog'liq holda amalga oshirildi.

Tadqiqotlar jarayonida quyidagi ekologik tarbiya texnologiyalaridan foydalanildi:



Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan ekologik tarbiya texnologiyalari

Tajriba-sinov ishlariga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat universitetining talabalari jalb etildi.

Interfaol usullardan foydalangan holda, auditoriya mashg'ulotlarida talabalarga ekologik tushunchalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga, o'zida shaxsiy va atrofdagilar bilan ekologik masalalarga mas'uliyat bilan yondashish hissini shakllantirish, ularga ekologik vaziyatlarni anglay olish va ekologiyaga salbiy ta'sir etuvchi vaziyatlarning oldini olish ko'nikmalarini singdirish, ekologik tarbiyalanganlik faqat talabani o'zi uchun emas, balki jamiyat va uning taraqqiyoti, kelajak avlod taqdiri uchun zarurligini anglash malakalarini shakllantirish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Dasturda belgilangan mavzular bo'yicha ta'limni ilg'or rivojlangan mamlakatlarning tajribalariga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar asosida olib borish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'tilayotgan mavzu yoshlarning qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi uchun pedagogik texnologiya komponentlari sifatida "Aqliy hujum", "Tarmoqlar" (Klaster), "Blits-so'rov", "Zinama-zina", "Rolli o'yinlar, modellashtirish", "Komandada o'qitish", "Zakovat o'yini", "O'yla, izla, top", "Muammo" kabi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanildi. Shuningdek, auditoriyadan tashqari tadbirlarda "Shahrim, ko'cham, qishlog'im ekologiyasi", "Ekologiya savodxonligi", "Tabiat mo'jizalari", "Flora va fauna", "Tabiat qo'yniga sayohat", "O'lkamiz tabiati" kabi mavzularda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazildi va tabiatdagi ekologik hodisalar, unga salbiy ta'sir etuvchi omillar, buning profilaktikasi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida talabalarga tushunchalar berildi.

"Yashil makon" umummilliy harakati doirasida turli manzarali daraxtlar, ko'chat va butalar, gullar ekish va ularni parvarishlash tadbirlari o'tkazildi.

"Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish", "Xalq pedagogikasi" o'quv kurslari tarkibiga integratsiya qilingan holda o'qitishning tajriba-sinovdan o'tkazishda o'quv materiallari loyihalari talabalarning qobiliyati, psixologik xususiyatlari, mavzularning ketma-ketligi, fanlararo bog'liqligi, uzviyligini aniqlashga e'tibor qaratildi.

Talabalarda ekologik kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallari hamda ta'lim modellarining samaradorligini biz quyidagi baholash mezonlar bo'yicha baholadik:

Talabalarda ekologik kompetentsiyalarning rivojlanganligini baholash mezonlari

T.r	Baholash parametri	Ball
1	Ekologik o'quv-kognitiv faoliyatini tashkil eta olishi	1
2	Shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishda mustaqil va jamoaviy faoliyat uchun ekologik bilim va ko'nikmalarni tizimli ravishda qo'llashi	1
3	Atrofdagi dunyoni bilishi, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uning ne'matlarini asrab-avaylash	1
4	Atrof-muhit muhofazasi, ekologik muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi omillar, ularni yechimi bo'yicha bilimlarga egalik	1
5	Talabani ma'lumotlarni qabul qilishi, tahlil etishi va qiyoslashi	1
6	Talabani manbalar asosida qo'shimcha ma'lumotlar bera olish darajasi	1
7	Talabani fikrini bayon qilishi, asoslay olishi	1
8	Talabani ma'lum bir vaziyatlar, muammolar yuzasidan qaror qabul qilishi	1
9	Ekologik kompetentsiyalarni tizimli ravishda qo'llashi	1
10	Internet ma'lumotlaridan foydalanish ko'nikmalari	1
	Jami	10 ball

O'zlashtirish darajasi 100% deb olinganda har bir parametr 10 % bilan belgilanadi. Bunda parametrning 1 tasi aniqlanganda 10%, 6 tasi aniqlanganda 60%, 10 tasi to'laqonli mavjudligi aniqlanganda 100% tarzida belgilanadi. Talabalarda ekologik kompetentsiyalarning rivojlanganligini baholashda ularning o'zlashtirish imkoniyatlarini ifodalovchi ballar yig'indisi 6 ballga yetganda, ular kompetentli, deb baholandi [3].

Tayyorlangan o'quv dastur, uslubiy qo'llanmalardan talabalarning nazariy va amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda didaktikaning ilmiylik, izchillik, ko'rgazmalilik, nazariya va amaliyot uzviyligi kabi tamoyillardan va zamonaviy texnologiyalar va texnik vositalardan samarali foydalanildi. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda o'quv kurslari tarkibiga ekologik ta'limni integratsiya qilingan holda o'qitish samaradorlik darajasini aniqlash Student va Pirsonning χ^2 matematik-statistika metodi yordamida tahlil etilib, o'rtacha o'zlashtirish 11 foizga va ekologik kompetentsiyalarning rivojlanganligi esa 14 foizga teng bo'ldi. Tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori bo'ldi va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi [4].

XULOSA

Oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish texnologiyalari mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Globallashtirish va turli texnologiya sabablari tufayli ekologik muammolarning paydo bo'lishi tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning ekologik tafakkurini o'stirishni taqozo etib, oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini alohida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb ijtimoiy-pedagogik tadqiqot masalalari sirasiga kiritadi.

2. Ekologik tarbiyani ta'minlashning ijtimoiy kelib chiqishi, pedagogik ta'limotlar tarixi doirasidagi tahlili ko'rsatishicha shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish butun ta'lim tizimini yangi ekologik-gumanitar paradigмага qayta yo'naltirishni talab qiladi, bu esa umumiy va kasbiy ta'limning gumanitar va ijtimoiy-tabiiy tarkibiy qismi sifatida ekologik bilimlarning ustuvorligini nazarda tutadi.

3. Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy umumlashmalardan kuzatilishicha, oliy ta'limda ekologik tarbiyani amalga oshirish jarayonining asosiy vazifasi talabalarda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni, tabiatga ongli munosabatni rivojlantirish, ekologik tarbiyalanganlik faqat talabani o'zi uchun emas, balki jamiyat va uning taraqqiyoti, kelajak avlod taqdiri uchun zarurligini anglash bilan bog'liq bo'lgan ta'lim paradigmasining o'zgarishida aks etadi.

4. "Ekologiya", "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish", "Xalq pedagogikasi" o'quv kurslari mazmunini boyitishda didaktika tamoyillari va metodika talablari uyg'unligini ta'minlash muhim pedagogik shartlardan hisoblanadi. Mazkur o'quv kurslari mazmunini boyitishda va o'qitishda Sharq mutafakkirlari ilmiy merosidan, milliy va umumbashariy qadriyatlardan foydalanishning

etnopedagogik xususiyatlari va imkoniyatlari aniqlandi, umuminsoniy va ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatlarga mos keladigan shaxsiy qadriyatlarni o'zlashtirishga asoslanildi va tarixiy, etnik, geografik hamda iqlim xususiyatlariga oid bilimlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi tajribalarda ayon bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 30-oktyabrdagi “2030–yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi”dagi PF-5847-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019–yil 27-maydagi “O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlash to'g'risidagi 434-sonli Qarori.
3. Sh.A.Mamajonov “Oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar metodikasi”. Muallim. 2022. 3-jild, 10-son. 38-45 b.
4. Sh.A.Mamajonov “Oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlarning samaradorlik ko'rsatkichlari”. Analytical Journal of Education and Development. 2022. 4-14 b.